

O'zbekiston yetakchisi Ozarbayjon qahramonlari xotirasiga hurmat bajo keltirdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasiga davlat tashrifining birinchi kuni Boku shahridagi Shahidlar xiyoboniga tashrif buyurdi.

Ozarbayjon poytaxtining qoq markazida joylashgan ushbu yodgorlik majmuasida mamlakat ozodligi va hududiy yaxlitligi yo'lida qurbon bo'lgan yurt qahramonlari dafn etilgan.

O'zbekiston yetakchisi yodgorlikka gulchambar qo'yib, Ozarbayjon vatanparvarlari xotirasiga ehtirom ko'rsatdi.



Manba